



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish yo’llari

Ashurova Oygul Anvarjonovna –

Farg‘ona davlat universiteti

“Inklyuziv” ta’lim kafedrası katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: oygulashurova@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9479-6852>

Arapova Gulshoda Avazbek qizi –

Farg‘ona davlat universiteti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi,
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Tadqiqotda tarbiyachi, ota-ona va bola o‘rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil etish, ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash hamda ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari hamkorlik madaniyatini rivojlantirish ta’lim sifati va bolalarning ijtimoiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, hamkorlik madaniyati, pedagogik hamkorlik, ota-ona va tarbiyachi, ijtimoiy muhit.

Пути развития культуры сотрудничества в дошкольных образовательных организациях

***Аннотация.** В статье рассматриваются актуальные вопросы развития культуры сотрудничества в дошкольных образовательных организациях. Анализируется организация эффективного взаимодействия между воспитателем, родителями и детьми, а также создание благоприятной социально-психологической среды. Результаты исследования подтверждают, что развитие культуры сотрудничества положительно влияет на качество образования и социальное развитие детей.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, культура сотрудничества, педагогическое взаимодействие, воспитатель и родители, социальная среда.*

Ways to develop a culture of cooperation in preschool educational institutions

***Annotation.** This article examines current issues related to the development of a culture of cooperation in preschool educational institutions. The study analyzes effective interaction among teachers, parents, and children, as well as the creation of a favorable socio-psychological environment. The results show that developing a culture of cooperation has a positive impact on the quality of education and the social development of children.*

***Keywords:** preschool education, culture of cooperation, pedagogical collaboration, teachers and parents, social environment.*

KIRISH

Hamkorlik madaniyati – bu ta'lim jarayonida tarbiyachi, ota-ona, bola va ta'lim muassasasi jamoasi o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, mas'uliyat va samarali muloqotga asoslangan munosabatlar tizimidir. Maktabgacha yosh davrida ushbu madaniyatni shakllantirish bolaning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda hamkorlik madaniyati muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida tarbiyachi, ota-ona va bolaning o'zaro hamkorligi ijtimoiy moslashuv, muloqot ko'nikmalari va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu sababli hamkorlik madaniyatini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachisi va o'qituvchisidirlar. Bolani barkamol shaxs sifatida shakllantirish, uning ma'nan va aqlan yetuk bo'lib yetishishiga, davlat va jamiyatimizning ravnaqiga munosib hissa qo'shishiga erishning eng muhim shartlaridan biri ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini

olib borishdir. Ushbu hamkorlikdagi ishlar samarali bo'lishi va bolaning har tomonlama rivojlanishiga haqiqatan ham hissa qo'shishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari oilalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkam o'rnatishlari zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda hamkorlik madaniyati shaxs rivojlanishining muhim ijtimoiy-pedagogik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim bosqichida hamkorlik madaniyatini shakllantirish bolaning muloqot kompetensiyasi, ijtimoiy faolligi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda hamkorlik madaniyati tushunchasi shaxslararo o'zaro hurmat, mas'uliyat, hamjihatlik, muloqotga ochiqlik va umumiy maqsad sari birgalikda faoliyat yuritish qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilinadi.

Pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar (L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev, D.B.Elkonin) ijtimoiy muhit va hamkorlikka asoslangan faoliyat bolaning psixik rivojlanishida yetakchi omil ekanligini asoslab beradi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik jarayonida o'zining mavjud imkoniyatlaridan yuqori darajadagi rivojlanish bosqichiga ko'tariladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik madaniyatini shakllantirishda o'yin faoliyati yetakchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Syujetli-rolli o'yinlar, jamoaviy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan faoliyatlar bolalarda muloqot ko'nikmalarini, kelishuvga erishish, fikr almashish va o'zaro yordam ko'rsatish malakalarini rivojlantiradi. Tadqiqotchilar hamkorlik madaniyatining samarali shakllanishi pedagogning kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Ota-onalar bilan samarali muloqot, ularni tarbiyaviy jarayonga jalb etish hamda umumiy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish bolada ijtimoiy moslashuv va hamkorlikka tayyorlikni oshiradi. Bir qator tadqiqotlarda (N.K.Krupskaya, Sh.A.Amonashvili) insonparvarlik pedagogikasi g'oyalari asosida qurilgan hamkorlik modeli ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan, muloqotga asoslangan va hamkorlik ruhida tashkil etishni talab etadi. Ushbu jarayon bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, jamoada ishlash malakalarini rivojlantirish va kelgusidagi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashuvni ta'minlashda muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Jarayonda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Pedagogika-psixologiya va maktabgacha ta'lim sohasiga oid mahalliy hamda xorijiy manbalar o'rganilib, ularda hamkorlik madaniyatini shakllantirishga doir nazariy qarashlar tizimlashtirildi. Qiyosiy-tahliliy metod orqali turli mualliflarning yondashuvlari solishtirilib, mazkur tadqiqot uchun metodik jihatdan eng maqbul g'oyalar tanlab olindi.

Shuningdek, empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat va diagnostik usullardan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv jarayonida bolalarning jamoaviy faoliyatdagi xulq-atvori, tengdoshlari bilan muloqoti va hamkorlik ko'nikmalarining namoyon bo'lish darajasi tahlil qilindi. Suhbat metodi orqali tarbiyachilar va ota-onalarning hamkorlik madaniyatiga oid qarashlari, pedagogik tajribalari va mavjud muammolar aniqlashtirildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari ham amalga oshirildi. Tajriba jarayonida hamkorlikka asoslangan o'yinlar, jamoaviy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlar tashkil etilib, ularning bolalar ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar taqqoslash va tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Mazkur metodologiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga doir ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatining samarali rivojlanishi bir qator muhim omillarga bevosita bog'liqdir. Xususan, tarbiyachilarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasi, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligi hamda bolalar o'rtasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarning shakllanganligi hamkorlik muhitini rivojlantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Jarayonda hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari, jumladan, birgalikda tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar, ota-onalar uchun seminar va treninglar, shuningdek, jamoaviy o'yinlarning ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Bunday faoliyatlar bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, o'zaro yordam va mas'uliyat hissinini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazish pedagoglar va oilalar o'rtasida samarali muloqot va fikr almashish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu uchrashuvlar orqali ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayoni, rivojlanish dinamikasi va mavjud ehtiyojlari haqida tizimli ma'lumotga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, pedagoglar ota-onalarga bolalarni yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tarbiyalash bo'yicha metodik tavsiyalar berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ota-onalarni ta'lim jarayoniga yanada faol jalb etish maqsadida maxsus pedagogik-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqish zarurligi aniqlandi. Bunday dasturlar ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish hamda bolalarning rivojlanishiga ongli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Onlayn platformalar orqali muntazam axborot almashish, maslahatlar berish va muhokamarlar tashkil etish ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini yanada faollashtiradi. Shuningdek, ota-onalar va bolalar uchun birgalikda tashkil etilgan faoliyatlar – ilmiy-ma'rifiy, madaniy, sport va ijodiy tadbirlar bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini rag'batlantiradi hamda pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydi.

Biroq tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish jarayonida muayyan qiyinchiliklar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, ko'plab ota-onalarning ish bilan bandligi ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Bunday holatlarda ta'lim tashkilotlari uchrashuv vaqtlarini moslashuvchan tarzda rejalashtirishi hamda masofaviy muloqot shakllaridan keng foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda madaniy va ijtimoiy farqlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Har bir oilaning o'ziga xos qadriyatlari va tarbiyaviy yondashuvlari mavjud bo'lib, pedagoglardan individual va tolerant yondashuv talab etiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda pedagoglarning kommunikativ malakalarini doimiy rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. Tarbiyachilarning ochiq muloqotga tayyorligi, ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlari bolalarning psixologik farovonligini ta'minlash bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida barqaror hamkorlik muhitini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish bolalarning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlashi va jamoaga moslashuvini ta'minlaydi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun tarbiyachilar, ota-onalar va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik tizimli, uzviy va maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yilishi lozim. Bunda pedagoglarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini oshirish, ota-onalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy muhit shakllanib, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun mustahkam pedagogik asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.Xodjaeva Maktabgacha ta'limda pedagogik faoliyat va ota-onalar bilan aloqalar. Toshkent: Maktabgacha ta'lim institutining nashriyoti, –2019.
2. R.Mahmudov, A.Rakhimov, Ota-onalar bilan samarali hamkorlik: Ta'lim jarayonida o'zaro aloqalar. Ta'lim va ilm, 23(4), 45-58.
3. K.Muminov Pedagogik muloqot va ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirishning zamonaviy usullari. Pedagogika ilmiy jurnali, 15(3), 78-85.
4. E.Andreeva Family-school partnership: Theory and practice in early childhood education. Moscow: Higher Education Press.
5. L.Karimova Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar bilan hamkorlikning samaradorligi. O'zbekiston pedagogika jurnali, 32(1), 67-72.
6. G.Shukurova Samarali pedagogik muloqot: Ota-onalar bilan hamkorlik. Tashkent: Yoshlar nashriyoti.
7. J.Lee Parents' engagement in early childhood education: A global perspective. Educational Research International, 25(4), 130-140.
8. Z.Akramova, Maktabgacha ta'limda ota-onalar bilan hamkorlik: Innovatsiyalar va tajriba. Tashkent: Ma'naviyat –2021.